

МИННАТДОРЛИК

Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги муассислигидаги Бирлашган таҳририят нашрлари – “Муҳофаза+” журнаlining ташкил этилганига салкам 25 йил, “Вазият” газетаси фаолиятининг йўлга қўйилганига эса 20 йил тўлди. Шу вақт оралигида Бирлашган таҳририят муқим бир манзилга эга бўлмасдан, анча жойларга кўчишига тўғри келди. Бунинг натижасида ижодий жамоа аъзоларининг меҳнат фаолиятида ҳам кўплаб қийинчилик, оврагарчиликлар юзага келди.

Ўзбекистон Республикаси Фавқулдда вазиятлар вазирлиги ташкил этилганлигининг 28 йиллиги арафасида вазирлик Бирлашган таҳририятига барча шароитлар мужассам бўлган, замонавий жиҳозларга эга бинонинг топширилиши ижодий жамоа аъзоларига муносиб тўхфа бўлди. Бу эса ўз навбатида, ходимларга янгича куч, илҳом бағишлайди, шу билан бирга, юксак масъулият ҳам юклайди. Таъкидлаш жоизки, Бирлашган таҳририят ижодий жамоаси ушбу улкан эътибор ва ишонччи ўзининг ҳалол ва фидойи хизмат фаолияти билан оқлайди. Вазирлик матбуот нашрларининг савиясини ошириш йўлида бор куч ва имкониятларини сафарбар этади.

Бирлашган таҳририят ходимларининг ижодий фаолиятига катта эътибор қаратаётгани учун вазирлик раҳбариятига чексиз миннатдорчилик билдирамыз.

ФВВ муассислигидаги “Муҳофаза+” журнали – “Вазият” газетаси бирлашган таҳририяти ижодий жамоаси.



НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИ

Фавқулдда вазиятлар вазири генерал-майор А.Кўлдошев бошчилигида вазир ўринбосари полковник Х.Алибаев, Тошкент вилояти ИИББ бошлиғи генерал-майор Т.Арипов ҳамда вилоят ва туман ФВДТга кирувчи корхона, ташкилотлар раҳбар ходимлари иштирокида Қўйичирчиқ тумани ҳудудидан оқиб ўтувчи Чирчиқ дарёси ўзанини тозалаш ва қирғоқларини мустаҳкамлаш бўйича назорат тадбирлари амалга оширилди.

Тадбир давомида сел, сув тошқини ҳодисалари билан боғлиқ фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш борасида амалга оширилаётган ишлар ҳақида айтиб ўтилди. Тошқин сувлари ва сел оқимларини хавф-хатарсиз ўтказиб юборишни таъминлаш бўйича кечиктириб бўлмайдиган вазифалар муҳокама қилинди. Жараёнда мутасаддиларга аҳолини ва ҳудудларни тошқинлар, сел оқимлари ҳодисалари билан боғлиқ фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш бўйича тегишли кўрсатма ва тавсиялар берилди.

ТЕЗКОР ЙИҒИЛИШ

Ички ишлар вазирлигида “Янги Ўзбекистоннинг бахтиёр болалари” шиори остида ўтказилиши режалаштирилган “25 май – сўнги қўнғироқ” ва “1 июнь – Халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни” байрами тадбирлари мобайнида жамоат тартибини сақлаш, фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш ҳамда ёнгин хавфсизлигини таъминлаш бўйича тезкор йиғилиш ўтказилди.

Унда Фавқулдда вазиятлар вазирининг биринчи ўринбосари – Штаб бошлиғи полковник С.Зупаров, Ички ишлар вазири ўринбосари, Миллий гвардия қўмондони ўринбосари, масъул раҳбарлар ва соҳавий йўналишлар бўйича ҳудудий бошқармалар вакиллари видеоконференцалоқа орқали иштирок этди.

Тезкор йиғилиш давомида байрам тадбирларини хавфсиз ўтказиш бўйича вазифалар муҳокама қилиниб, зарур чоралар белгилаб олинди.



МАТБУОТ АНЖУМАНИ

Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридаги Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлигида Фавқулдда вазиятлар вазирлиги томонидан “Фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш, фуқароларни бундай ҳолатлардан ҳимоя қилиш ва бу борадаги билимларини ошириш бўйича олиб борилаётган чора-тадбирлар” мавзусида матбуот анжумани ўтказилди.



Тадбирда фавқулдда вазиятлардан талафотларсиз чиқишининг энг самарали омилларидан бири – аҳоли ва бошқарув органларининг барча таркибини фавқулдда вазиятларда тўғри ҳаракатланиш, уларнинг оқибатларини бартараф этиш ишига олдиндан тайёрлаш эканлиги, шунингдек, қутқарув хизматлари ва тузилмаларининг тайёргарлигини ошириш бўйича бажарилган ишлар ва келгусида режалаштирилаётган ишлар хусусида сўз юритилди.

Таъкидланганидек, ўтган ўқув йили давомида Фуқаро муҳофазаси институтида республика ва вилоят миқёсидаги ташкилотлар раҳбарлари, туман, шаҳар ҳокимлари ва фуқаро муҳофазаси бўйича



масъул мутахассислардан иборат 4787 нафар, ҳудудий Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув марказларида туманлар ва шаҳарлар миқёсидаги ташкилотлар раҳбарлари ва масъул мутахассислари, қутқарув хизматлари, қутқарув тузилмалари ҳамда фуқаро муҳофазаси тузилмалари бошлиқлари, фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органларининг раҳбарларидан иборат 51 918 нафар тингловчи малакаси оширилган.

Жорий йилнинг бугунги кунига қадар 8 та, жумладан, Жиззах вилоятининг Пахтакор, Мирзачўл ва Дўстлик туманларида, Бухоро вилоятининг Когон шаҳар ва туманларида, Қорақалпоғистон Республикасининг Хўжайли ва Тахياتош туманларида, Сурхондарё вилояти Қизириқ туманларида қўмондонлик-штаб ўқув машқлари ўтказилди.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ тайёрлади.

ФАХРИЙЛАР ЭЪЗОЗДА

Ҳарбий прокуратура фахрийлари ва ходимлари иштирокида “Эл-юрт тақдири – менинг тақдирим”, “Қадр муқаддас, хотира абадий”, “Халқ ва армия – бир тану бир жон”, “Фахрийлар ҳамisha эъзозда” каби шиорлар остида “Уч авлод” учрашувлари ўтказиб келинмоқда.

Бундай тадбирлар жорий йил давомида 30 дан ортиқ ташкил этилди. Зотан, тарих ва келажак муштараклигини таъминлаш бугунги авлод зиммасидаги олий бурч саналади.

Бундан ташқари, фахрийларимизни ижтимоий ва ҳуқуқий қўллаб-қувватлаш тадбирларига алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Бу борада ўтган тўрт ой ичида 5 нафар фахрийга тиббиёт муассасаларида даволанишлари учун ва 100 млн. сўмга яқин дори-дармонлар бепул берилишида амалий ёрдам кўрсатилди.

Шунингдек, марҳум фахрийларимизнинг оила аъзолари ва яқинларини йўқлаш, уларнинг қонунчиликда белгиланган ҳуқуқ ва манфаатларини таъминлаш ишлари мунтазам амалга ошириб келинмоқда.

Мазкур соҳада амалга оширилган тадбирлар эса ҳарбий прокуратуранинг Интернет тармоқлари орқали, шу жумладан, Telegram мессенжеридagi саҳифасида йўлга қўйилган “Хотира” ва “Эҳтиром” ҳештеглари остида кенг жамоатчилик эътиборига ҳавола этиб борилмоқда.

Отабек ХОЛБОЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг биринчи ўринбосари,
адлия полковниги.

Ўзбекистон Республикаси Бош прокурорининг ўринбосари — Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Кудратходжаев томонидан пойтахтимиз туманларида ўрганиш ишлари олиб борилди.

КўРСАТМАЛАР БЕРИЛДИ

Хусусан, Учтепа ва Чилонзор туманлари ИИО ФМБ ҳамда уларнинг тузилмалари фаолияти ўрганилиб, ҳуқуқбузарлик ва жиноятларнинг олдини олиш, замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, навбатчи ва тезкор гуруҳлар шайлиги қай ҳолатдалигига эътибор қаратилди.

Шунингдек, ушбу туманлардаги “Кўрғонтепа” ва “Бешкўрғон” маҳаллаларида еттилик тизими фаолияти ўрганилди.

Жараёнда ёшлар билан

манзилли ишлаш, ўзини ўзи банд қилиш борасида амалга оширилаётган ва фаолиятга доир бошқа ишлар билан танишиб чиқилди.

Ўрганишлар давомида масъулларга тегишли кўрсатма ҳамда тавсиялар берилди.

Феруз ҲАМЗАЕВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси бўлим бошлиғи ўринбосари,
адлия подполковниги.

МАЪРИФИЙ САБОҚ

Бу галги “Маънавият соати” янги тахрирдаги Ўзбекистон Республикаси Конституциясига бағишланди.

Мавзуни ҳуқуқшунос олим, Жамоат хавфсизлиги университети профессори, ю.ф.д. Озод Хусанов атрофлича ёритиб, янгиланган Асосий қонунимизнинг яратилиши, босқичлари, зарурати, моҳияти ва аҳамияти хусусида тўхталди.

Республика ҳарбий прокуратурасида видеоконференцалоқа тарзида ўтган мулоқотда маҳкама ва ҳудудий ҳарбий прокуратуралар ходимлари ҳамда фахрийлар иштирок этиб, мавзу доирасида фикр-мулоҳазалар алмашилди.

Сўнг хизматга янги қабул қилиниб, лавозимга илк бор тайинланган ёш ходим Д.Юлдашевнинг қасамёд қабул қилиш маросими бўлиб ўтди.

Унда Бош прокурор ўринбосари – Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурори Б.Кудратходжаев иштирок этиб, Ватанимизга ва халқимизга хизмат қилишдек ўта масъулиятли ва шарафли фаолиятларида улкан зафарлар тилади.

Акмал АБДУРАҲМОНОВ,
Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси,
адлия подполковниги.

САЙЁР ҚАБУЛ

Қуролли Кучлар Академиясида Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан сайёр қабул ташкил этилди.

Жараёнда ҳарбий хизматчилар, тингловчилар ва Қуролли Кучлар хизматчиларининг мурожаатлари тингланди. Келиб тушган 16 та мурожаатдан 1 таси жойида ижобий ҳал этилган бўлса, 10 таси бўйича ҳуқуқий тушунтириш берилди. Муддат талаб этадиган 5 таси кўриб чиқиш учун иш юритувга қабул қилинди.

Олим ҲАЙДАРОВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси, адлия майори.

ВАТАНПАРВАРЛИК САЙЛИ

Тошкент ҳарбий прокуратураси томонидан мудофаа ишлари ва фавқулодда вазиятлар бўлимлари, ҳарбий қисмлар қўмондонлиги ҳамкорлигида ватанпарварлик тадбири ўтказилди.

Унда Янгийўл туманининг олис ва чегараолди ҳудудларида жойлашган “Дўстлик”, “Умид” ва “Ватан” маҳаллалари ёшлари ҳамда мактаб ўқувчилари иштирок этдилар.

Жараён Тошкент туманида чегараолди масканидаги “Нурҳаёт”, “Ойдинҳаёт” ва “Ибрат” маҳаллаларида яшовчи ёшлар билан давом этди.

Куч тузилмаларининг кўргазмали чиқишлари ва махсус техникалар намоиши барчага катта иштиёқ бағишлади.

Отабек МЕНГЛИЕВ,
Тошкент ҳарбий прокурорининг катта ёрдамчиси,
адлия майори.

Жиноятга жазо муқаррар

Яқинда судда коррупцияга оид жиноий иш кўриб чиқилди.

– Ўша куни танишим С.С. қўнғироқ қилиб, ишончномаси йўқлиги учун йўл ҳаракати хавфсизлиги хизмати ходими машинани жарима майдонига жойлаштирганлигини айтди, – деди судда судланувчи Ф.Х. – Унинг гапи бўйича айтилган манзилга етиб бордим. Автомашиналарни вақтинчалик сақлаш жарима майдонига йўл патруль хизмати катта инспектори А.Т. га танишим ишончномасиз машинани бошқарганлиги учун расмийлаштирилган маъмурий баённомани ижрога қаратмаслик ва машинани чиқариб бериши хусусида ёрдам сўрадим. ИПХ инспекторига хизмат ҳақи сифатида бир миллион сўм таклиф қилдим. У эса рад этиб, бу жиноят экани ҳақида бир неча марта мени огоҳлантирди. Мен эса қайта-қайта пул таклиф қилавердим. Мақсадим танишимга ёрдам бериб, машинани тезроқ жарима майдонидан

ПОРА ТАКЛИФ ҚИЛИБ...

чиқариш эди. Ўша куни кечқурун жарима майдонининг қоровулхонасида ГАИ ходимига 1.000.000 сўм берган вақтимда уч-тўрт нафар фуқаро кийимидagi орган ходимлари мени ушлашди. Бундай бўлишини ўйламагандим. Ҳозирда қилган ишимдан пушаймонман. Оилавий шароитимни ҳисобга олиб, енгилроқ жазо беришингизни сўрайман.

Суд Ф.Х.нинг пора беришда ифодаланган жиноий ҳаракатига қонуний баҳо берди. Унга 3 йил муддатга озодликни чеклаш жазоси тайинланди.

Бахтиёр АЛИМОВ,
Жиноят ишлари бўйича Яшнобод туман судининг раиси.



ТАНЛОВ ДАВОМ ЭТМОҚДА

Ўзбекистон Республикаси Ҳарбий прокуратураси томонидан куч тузилмалари ва бошқа мутасадди ташкилотлар ҳамкорлигида республикамиз бўйлаб ўтказиб келинаётган “Мен – ватанпарварман” лойиҳасининг навбатдаги босқичи Наманган вилоятида бўлиб ўтди.

Танлов уч кун давом этди ва унда Поп туманининг чегараолди ҳудудларида жойлашган 43-, 60 ва 69-сонли умумтаълим мактабларининг ўқувчи-қизлари иштирок этди.

Ғолиб жамоалар ва фаол ўқувчилар Ўзбекистон Республикаси ҳарбий прокурорининг фахрий ёрлиғи, диплом ҳамда эсдалик совғалари билан тақдирландилар.

Сардор ЁРМАТОВ,
Ўзбекистон Республикаси ҳарбий прокурорининг ёрдамчиси, адлия подполковниги.

OGOHO BO'LING!

Bolalarning sho'xligi bilan bog'liq yong'inlarning kelib chiqishiga asosiy sabab, kattalarning farzandlariga bo'lgan e'tiborsizliklari yoki farzandlarining ayrim qoida talablarini o'zlashtirmaganliklaridandir.

Har bir yong'in insonlar, ularning yaqinlari hayotiga xavf solishi va mashaqqatlar evaziga bunyod etilgan uy-joylari, mol-mulklarining bir zumda yonib ketishiga olib kelishi mumkin.

Ota-onalar farzandlarini javobgarlikni his qilishga o'rgatishi, ular bilan olov va uning xususiyatlari, yong'inning kelib chiqish omillari borasida hayotiy misollar asosida suhbat o'tkazib turilishi juda muhimdir.

A. OTAQO'ZIYEV,
Andijon shahar FV bo'limi inspektori,
kapitan.
I. ERGASHBOYEV,
kichik inspektor, serjant.

SHARAFLI KASB

"Qamchiq" maxsus qidiruv, yong'in-qutqaruv boshqarmasi qutqaruvchilari bilan "Qamchiq" dovoni Ko'ksaroy qishlog'i 22-umumta'lim maktabida "Qutqaruvchi va yoshlar uchrashuvi" o'tkazildi. "Biz jinoyatchilikka qarshimiz" shiori ostida tashkil etilgan tadbir qiziqarli savol-javoblarga boy bo'lib o'tdi.

Sh.ABDUSATOROVA,
"Qamchiq" MQYQB bosh mutaxassisi.

TADBIR

Chust tumani FV bo'limi inspektorlari va yong'in-qutqaruv qismlari shaxsiy tarkibi ishtirokida "Qayirma" MFY va unga chegaradosh hududlarda yong'in, chaqnash, botulizm hamda is gazidan zaharlanishning oldini olish bo'yicha profilaktik tadbirlar o'tkazildi.

Tadbirlar davomida ishtirokchilarga zarur tavsiya va ko'rsatmalar berildi.

Oybek UMAROV,
bo'lim 25-YQQ boshlig'i, katta leytenant.
Sherzod ESONOV,
bo'linma boshlig'i, kapitan.



AYOLLAR LIDERLIGI

2023 – 2024-yillarga mo'ljallangan YEXHT loyihalarini O'zbekiston Respublikasida amalga oshirish bo'yicha tasdiqlangan "Yo'l xaritasi" doirasida Toshkent shahrida sud va huquqni muhofaza qilish organlari xodimlari uchun "Ayollar liderligini ilgari surish" mavzusida trening o'tkazildi.

Ikki kun davom etgan treningda barcha huquqni muhofaza qiluvchi organlar ayollari qatorida FVV xodimlari mayor O.Kambarova, kichik serjant M.Mingboyeva, xizmatchi R.Norovalar ham faol ishtirok etib, tashkilotchilarning sertifikatlariga ega bo'lishdi.

M.MINGBOYEVA,
FVV inspektori, kichik serjant.

Sirdaryo viloyatida FVV mas'ullari boshchiligidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar boshqarmalarining FVDT va FM tuzilmalari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'limlari boshliqlari ishtirokida 3 kunlik o'quv yig'ini bo'lib o'tdi. Dastlab ishtirokchilarga aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga doir huquqiy va me'yoriy hujjatlar talablari yetkazildi.

O'QUV YIG'INI

Shuningdek, FVDT hududiy va tegishli funksional quyi tizimlarining boshqaruv organlari, kuch va vositalarining hamkorlikda harakatini tashkil etish va muvofiqlashtirish, ko'nikmalarini shakllantirish yuzasidan yo'riqnomalar berib o'tildi.

O'quv yig'inining amaliy qismi Yangiyer sanoat maydonida davom ettirilib, "Tabiiy va texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlarining oldini olish hamda oqibatlarini bartaraf etishda obyekt fuqaro muhofazasi tuzilmalarining tuman FVDT xizmatlari bilan hamkorlikdagi harakatlari" mavzusida maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi davomida talafot oqibatlari bartaraf etish, jabrlanganlarni qutqarish va yordam berish bilan bog'liq vazifalar amalda bajarildi.

Sharof JO'RAYEV,
Sardoba tumani FV bo'limi boshlig'i o'rinbosari, kapitan.
Abror ABDUKARIMOV,
bo'lim boshlig'i o'rinbosari, leytenant.

"Navoiy kon-metallurgiya kombinati" AJ va "Navoiyuran" DK obyektlarida Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish markazi va uning tarkibidagi bo'limlarning harbiy xizmatchi va xizmatchilari ishtirokida "Biz jinoyatga qarshimiz, jinoyatchilikning oldini olish hamda diniy ekstremizm va terrorizm – kelakka tahdid" mavzularida kengaytirilgan uchrashuv tashkil etildi.

MUHIM MAVZUDA

Tadbir davomida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish bugungi kunda nihoyatda dolzarb masala ekanligi, ushbu illatni tag tomiri bilan quritishga qaratilgan sa'y-harakatlarni vijdonan bajarish kerakligi, elektron qimor o'yinlaridan yiroq bo'lish zarurligi, turli xildagi saytlarga kirmaslik borasida muhim fikr-mulohazalar bayon etildi. Tamagirlik va poraxo'rlik holatlarini sodir etib, huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari tomo-

nidan qo'lga olingan shaxslarning harakatlari aks etgan videorolik namoyish etildi. Uchrashuv yakunida ishtirokchilar o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Mansur UMRZOQOV,
Navoiy viloyati FVB shaxsiy xavfsizlik bo'limi boshlig'i, mayor.
Ma'rufjon HAYITOV,
"Navoiyuran" DK YXTTEM guruh boshlig'i, katta serjant.

Qonun hujjatlarida korrupsiya tushunchasiga "Korrupsiya – davlat organlari xodimlari moddiy yoki mulkiy yo'sinda, g'ayri-qonuniy shaxsiy naf ko'rish maqsadida, o'z xizmat mavqeidan foydalanishida ifodalanadigan ijtimoiy hodisadir", – deya ta'rif berilgan.

ILLATGA QARSHI

Korrupsiyaning kelib chiqish sabablarini aniqlash, korrupsiyaga qarshi kurashning samarali yo'llarini topish bo'yicha mutaxassislar, turli institutlar va xalqaro tashkilotlar tomonidan yuzlab, minglab tadqiqotlar o'tkazilgan. O'ziga xos reytinglar tuzilib, har xil ko'rsatkich va raqamlar qayd etilgan jadvallar yaratilgan. Hatto korrupsiyaning xilma-xil ko'rinishidagi formulalari ham ishlab chiqilgan. Hanuzgacha, barcha millatlar uchun qo'l keladigan qarshi kurashda asqotadigan yagona yechim yo'q.

"Asr vabosi" – ya'ni korrupsiyaning kelib chiqishidan qat'iy nazar, har birimiz unga qarshi kurashda murosasiz munosabatda bo'lsak, adolat, haqiqat tamoyillariga amal qilsak, bu borada kutilgan natijalarga erishamiz, albatta. Zero, ushbu illatga qarshi kurash – barchamizning umuminsoniy burchimizdir.

Sh. MAXAMATJANOVA,
Toshkent shahar FVB YOXTTEB katta inspektori, kapitan.



RAHBAR VA YOSHLAR

UCHRASHUVI

FVV Boshlang'ich tayyorgarlik va malaka oshirish markazida vazirlik ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik J.Hasanov, O'zbekiston yoshlar ittifoqi Samarqand viloyati kengashi raisi D.Azizova, Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig'i podpolkovnik N.Kadirov, Markaz boshlig'i polkovnik Sh.Ayubovlar hamda markazda ikki kunlik harbiy vatanparvarlik o'quv kurslarida tahsil olayotgan yoshlar ishtirokida "Rahbar va yoshlar"

uchrashuvi tashkil qilindi. Tadbir davomida tizimda olib borilayotgan islohotlar, davlatimiz rahbari tomonidan harbiy xizmatchi va xizmatchilarga berilayotgan e'tibor hamda yaratilgan shart-sharoitlar to'g'risida tushunchalar berildi.

Tadbir yakunida yoshlarga sertifikatlar topshirildi.

F.MAVLONOV,
Markaz bo'lim boshlig'i, podpolkovnik.
N.ABDURASULOVA,
kichik inspektor, I darajali serjant.

HUSHYORLIKNI UNUTMAYLIK!

Davlat va jamoat joylarida, xonadonlarimizda xizmat yoki boshqa vaqtlarda yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishimiz shart va zarurdir. Chunki o'zimiz, atrofimizdagilar va yaqinlarimizning xavfsizli, avvalo, o'zimizga bog'liq.

Shuning uchun aholi va hududlarni yong'in va boshqa tusdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish tadbirlarida barchamiz faol qatnashishimiz, bu boradagi ishlarga munosib hissa qo'shib, soha vakillariga yordamchi bo'lishimiz lozim.

Bu jarayonda o'quv mashg'ulotlarining alohida o'rni bor. Raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, joriy yilda FVDT xizmatlari tomonidan aholi, korxonalar hamda tashkilotlar bilan hamkorlikda jami 566 ta fuqaro muhofazasi yo'nalishida maxsus-taktik o'quv mashqlari o'tkazilib, ushbu tadbirlarga jami 42 973 nafar tuzilmalar shaxsiy tarkibi hamda 3829 ta texnika jalb qilingan.

Shuningdek, "Is gazidan zaharlanish va gaz-havo aralashmasi chaqnashi natijasida yuzaga keladigan FVlarning oldini olish", "Qor ko'chkisi sodir bo'lganda aholining to'g'ri harakati", "Sel, suv toshqini hodisalaridan muhofazalanish tadbirlari", "Yong'inlarning oldini olish va yong'inlar vaqtda aholining to'g'ri harakatlari", "Zilzila hodisasi va unga oldindan tayyorgarlik" mavzularida mashg'ulotlar tashkilashtirilib, aholining Fuqaro muhofazasi sohasiga oid nazariy va amaliy bilimlari mustahkamlanmoqda. Xonadon-ma-xonadon yurilgan holda, seminarlar, davra suhbatlari va profilaktik tadbirlar o'tkazilib, ushbu tadbirlar davomida aholiga mavzuga oid ko'rgazmali vositalar, uslubiy qo'llanmalar tarqatilmoqda.

A. KADIROV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi binosida YOXTTEB 1-bo'linmasi kichik inspektori, kichik serjant.

O'RGANISHLAR BARDAVOM



Qashqadaryo viloyati FVB boshlig'i polkovnik F.Mirzayev Kasbi, Mirishkor, Shahrisabz, G'uzor, Yakkabog' tumanlari FV bo'limlari shaxsiy tarkibi faoliyatini ko'rib chiqdi.

O'rganishlar davomida YQQ-larning navbatchi-dispatcherlik xizmatlari faoliyatini samarali tashkil etish hamda shaxsiy tarkibning jangovar shayligini

oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

2024-yil uchun manzilli dastur asosida Yakkabog' tumanining «Daryo» va «Sharsharboq'ot» MFYlar hududlaridan oqib o'tuvchi daryo, soy va kanallarda rejalashtirilayotgan muhofaza tadbirlari loyihasi bilan tanishildi.

Qashqadaryo viloyati FVB axborot xizmati.

OGOHLIK

Bir vaqtning o'zida 100 dan ortiq havo kemalariga xizmat ko'rsata oladigan "I.Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroporti"da yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha 12 ta suv havzasi, 65ta yer osti suv quduqlari, 361ta ichki yong'in o'chirish suv jo'mraklari, 1708 ta birlamchi o't o'chirish vositalari, 48 ta yong'inga qarshi qalqon mavjud.

Yong'in xavfsizligini ta'minlashni tashkil etish bo'limi xodimlari tomonidan favqulodda vaziyatlarning oldini olish hamda yong'in xavfsizligini ta'minlash bo'yicha nazorat o'rnatilgan bo'lib, muntazam o'rganishlar o'tkazilmoqda.

Ushbu o'rganishlar davomida aniqlangan kamchiliklar yuzasidan yuqori turuvchi tashkilotlarga taqdimnoma va axborotnomalar kiritilmoqda.

Sherzod KADIROV,
"Uzbekistan Airports"
AJ binolarida YXTTEB bosh inspektori,
Abbos PO'LATOV,
kichik inspektor, katta serjant.

Bo'stonliq tumanida joylashgan umumta'lim maktablari, maktabgacha ta'lim muassasalari, bolalar yozgi dam olish oromgoxlari va boshqa sog'lomlashtirish muassasalari mas'ul xizmatlar hamkorligida o'rganib chiqilib, aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish choralari ko'rilmogda.

YONG'INDAN SAQLANIG!

O'rganish davomida favqulodda vaziyatlar va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish, binolar hududi hamda xonalarda tartibni saqlash bo'yicha yo'riqnomalar o'tkazildi.

Ro'zimatjon XALILOV,
Ixtisoslashgan ko'p tarmoqli boshqarmasi inspektori,
katta leytenant.

MASHG'ULOT

Ohangaron tumani "Qorasuvyoqa" hamda "Susam" MFYlari hududidan oqib o'tuvchi "Kandirsoy"ning 1000 metr qismida o'zan tozalash, qirg'oq mustahkamlash ishlarini tashkil etish yuzasidan maxsus-taktik o'quv mashqi o'tkazildi.

O'quv mashqi davomida 7300 metr ichki yo'llar shag'allashtirildi.

J.ABDIVAYITOV,
Ohangaron tumani FV bo'limi
50-YQQ boshlig'i, kapitan.
Z.ESHNAZAROV, katta inspektor, katta leytenant.

MUHOKAMA

Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil devoni tomonidan o'tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan kamchiliklarga yo'l qo'ygan DYN organi mansabdor shaxslarining xatti-harakatlari o'rnatilgan tartibda muhokama qilindi.

Jumladan, xizmat faoliyatida "E-inspector", "E-ma'muriy", "E-material" "Nodavlat-bog'cha.uz", "Yerelektron", "Loyiha hujjatlarini kelishish" va "Yagona davlat nazorati" elektron tizimlaridan yuqori samaradorlik asosida foydalanish ishlari tahlil qilinib, zarur chora-tadbirlar belgilandi.

Akmal VOHIDOV,
Samarqand viloyati FVB
xodimi, kapitan.



MAVSUMGA TAYYORGARLIK

"G'alla – 2024" mavsumiga tayyorgarlik ko'rish hamda uni betalafot o'tkazish maqsadida, Xonqa tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan yig'im-terimda ishtirok etadigan kombaynlar ko'zdan kechirildi.

Haydovchilarga yong'in

xavfsizligi va yo'l harakati qoidalariga amal qilish kerakligi bo'yicha yo'riqnomalar o'tkazilib, eslatmalar tarqatildi.

S.QALANDAROV,
Xonqa tumani
FV bo'limi xodimi,
podpolkovnik.

MILLAT G'URURI

Samarqand viloyati FVB shaxsiy tarkibi tomonidan Samarqand tumanida yashovchi Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Ahadqul bobo Ochilov hamda sohada uzoq yillar ishlab, keksalik gashtini surayotgan faxriylar holidan xabar olindi.

Bundan tashqari, o'z xizmat vazifasini bajarish vaqtida halok bo'lgan marhum yong'in o'chiruvchi Alibek Shodmonov va qutqaruvchi-g'avvos G'afur Jo'rayevlar-

ning oila a'zolari holidan xabar olinib, ularning ko'rsatgan jasoratlarini xalqimiz hech qachon unutmasligi to'g'risida suhbatlar olib borildi.

Marhumlarning yaqinlari ko'rsatilgan ehtiromlar va g'amxo'rlik uchun viloyat FVB rahbariyatiga minnatdorlik bildirdilar.

Illhom BOQIYEV,
Samarqand
viloyati FVB axborot
xizmati boshlig'i, katta leytenant.



TEXNIK KO'RIK

Qashqadaryo viloyati FVB kichik hajmli kemalar inspeksiyasi tomonidan Chiroqchi tumanidagi barcha kichik hajmli kemalarning navbatdagi yillik texnik-ko'rigi o'tkazildi.

Texnik-ko'rik yakunlariga ko'ra, haydovchilarga maxsus ruxsatnomalar rasmiylashtirib berildi.

A.MUSTAFOYEV,
Qashqadaryo viloyati FVB
kichik hajmli kemalar inspeksiyasi
boshlig'i, podpolkovnik.

DOVONDA REYD

Dovondan o'tgan avtomobil yo'lining "Chinor" va "Namangan" postlarida muntazam ravishda IIV JXD YHXX, transport va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi xodimlari bilan hamkorlikda A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni hududida favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha reyid tadbirlari amalga oshirilmogda.

Jumladan, mutaxassislar tomonidan 2024 yil boshidan avtomobil yo'lining "Vodiy-Toshkent" yo'nalishida 2096 ta, "Toshkent-Vodiy" yo'nalishida 2878 ta xavfli yuk tashuvchi transport vositalarining haydovchilari bilan profilaktik tushuntirish va suhbatlar o'tkazildi. Xavfli yuk tashuvchi transport vositalari yong'in xavfsizligi va yuk ortish qoidalariga rioya qilmagan haydovchilarga bayonnomalar rasmiylashtirildi.

Alisher QUDRATOV,
navbatchi-dispatcherlik bo'limi
boshlig'i, kichik serjant.



AMALIY TARZDA

Toshkent viloyati FVB, O'rtachirchiq tumani FV bo'limi masul xodimlari tomonidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda Toshkent dengizi atrofida "Oltio'g'il" mahallasida joylashgan "TASH VEGAS" korxonasi sel, suv toshqinlarining oldini olish, kichik hajmli kemalardan xavfsiz foydalanishga oid amaliy mashg'ulot o'tkazildi.

Mashg'ulot davomida ishtirokchilarga zarur ko'rsatmalar va tavsiyalar berilib, ko'rgazmali materiallar tarqatildi.

B.XUDAYAROV,
Toshkent viloyati FVB KXKI boshlig'i, mayor.
Z.TESHABAYEV,
O'rtachirchiq tumani FV bo'limi boshlig'i, podpolkovnik.

Тўйхат ўрнида

ШЕРЗОДХОН ҚУДРАТХЎЖА – ДЎСТ-ОЛИМ-РАҲБАР



СУРАТ ВА СИЙРАТ

Мавлоно Жалолиддин Румий айтган ҳикмат ўйга толдирди: ўқилдиган энг буюк китоб бу – инсондир. Уни ўқий олдикми? Неча саҳифасини ўқидик? Суратини ўқидикми, сийратини? Борлиғимизни фоний сурат билан кўра олмаймиз-ку. Саволлар кўп. Ўзимизни тополмай, ўзимизни англамай юрган бир банда бўлсак. Бу китобни ўқишга йўл бўлсин.

Сурати ва сийрати бошқа-бошқа инсонларга ҳам йўлиқамиз. Уларни ўқиш мумкинми? Билмадим, бунинг учун қанақа илм керак экан?! Қалбни ўқишга ўргатадиган фан борми?! Ишонувчанлигим ожизлигим белгиси. Шу сабаб сурати алдаб қўйган китоблар кўп бўлган.

Яратганга беҳисоб шукурлар бўлсин. Ҳаётимда сурати ва сийрати бир хил одамларга ҳам йўлиқтирди. Улар билан мулоқот қилганимда қалбим нурга тўлгандек бўлади.

Шерзодхон Қудратхўжа сиймосига чизгилар битиш осон эмас. Кўз опдимда бирданига учта қиёфа гавдалангандек бўлади: дўст-олим-раҳбар. Талабчан, қаттиққўл раҳбар сиймосини кўрганда фаол позиция пайдо бўлади. Ватан, миллат учун фидойи бўлишга ички бир куч ундай бошлайди. Меҳрибон, кўнгилчанлигида дўст қиёфаси гавдаланади. Пастга тушиб, ҳаммининг кўнглини олгуси келади. Илм ҳақидаги куюнчаклигини кўриб, қалб равшан тартади. Илм йўлини излаганларнинг мазиллини ёритишга ҳаракат қилаётган зукко олимни кўрасиз. Кўзани илм нури ипа тўлдиришга шошаман.

Қайси бирига қараб, Шерзодхоннинг портретини шакллантира olasиз? Мураккаб жумбоқ. Аммо ечим яна унинг ўзида. Олимпик устун келади. Бебаҳо ҳикмат ҳаёлимга келади: “Аллоҳнинг шундай бандалари бор. Улар ёмғирларга ўхшайдилар. Қуруқликка ёғсалар – хайру баракот, денгизга ёғилсалар – марварид ҳосил қи-

лурлар”. Ёмғир авлиёлар, олимларга ишора. Уларнинг суҳбати, айтадиган сўзи, қиладиган амаллари жисмига ёмғир бўлиб тушганда хайрли ишларга рағбатимиз ортади. Қалбимизга томганида жонимиз илму маърифат билан, яъни бебаҳо марварид билан безанади. Мен бу китобдан шуни ўқидим. Шерзодхоннинг сиймоси ҳақидаги тасаввуримга чизги тортидим: олимлиги устун келган раҳбар, инсонийлиги устун келган дўст.

Кўза қанчалик чиройли бўлмасин уни томоша қилишдан зерикасиз. Шундай. Мақсад сурат эмас, сийрат бўлгани учун. Кўзадан мақсад ичидаги сув. Зилоп оби ҳаёт масаланинг моҳияти. Суратга маҳлиё бўлиб, маънода ғофил қолиш кишини адаштиради.

ҲАРБИЙ КАФЕДРАДАГИ ТАҲСИЛ

1994-1995 ўқув йилида Тошкент давлат университети ҳарбий кафедрасида таҳсил олдик. Шерзодхон взвод командири эди. Ҳарбийчасига айтганда, гуруҳда ҳақиқий пидер эди. Бу фазипат ҳарбийликда кадрланади. Шу сабабли курсдошлар ҳазиллашиб, “генерал” дердик. Фаришталар омин деганми, бугун Ўзбекистон журналистикасининг генералларидан бири, десам муболага бўлмайди. Журналист сифатидаги фаолиятини бошқа ҳамкасблар батафсил ёзади, деган умиддаман. Лекин бу унвонни бериш учун унинг битта иши етарли: “Халқаро пресс клуб”. Ўзбекистон келажаги, халқ манфаати йўлида ҳақ сўзни айтишга чоғланган медиа етакчи. Аспида ҳар бир нарсанинг ботинига назар солган ҳақ йўлни топади.

ҲАРБИЙ ЖУРНАЛИСТИКА ИЛМИГА ПОЙДЕВОР

2019 йил, баҳор. Мудофаа вазирлиги мутасаддилари билан Ўзбекистон Журналистика ва оммавий

коммуникациялар университетига келдик. Ҳарбий журналист кадрларни тайёрлаш ва қайта тайёрлаш борасида меморандум имзолашимиз керак. Тантанали равишда ҳужжатга имзо қўйилди. Бу билан иш битмади. Ярим ҳазил аралаш менга ишора қилганча “полковникни берасизлар” деди Шерзодхон вазирлик раҳбариятига. Тўғриси, биз ҳарбий журналистика илмининг тақдири ҳақида ўйлаб кўрмагандик. Ҳужжат имзоласак, қолгани Ўзбекистон Журналистика ва оммавий коммуникациялар университети-нинг муаммоси, деган ички бир ўй ҳам йўқ эмасди. Шерзодхон раҳбар сифатида эмас, олим сифатида ўйлади. Янги йўналиш “ҳарбий журналистика” нинг илми ҳақида пойдевор қўйилмасидан қайғурди.

Халқимизда “Бола бошидан...” деган гап бор. Мен Шерзодхонни талабалигидан биламан. ТошДУ (ҳозирги ЎзМУ) журналистика факультетининг еврогуруҳида таҳсил олган Шерзодхон талабалигидаёқ ўзининг билими, ташаббускорлиги билан алоҳида ажралиб турарди. Бу ёқимтой йигитчага жуда ҳавас қилардим, – дейди Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси аъзоси Азамат Суюнов. – Ўзининг ярим асрлик ҳаёти ва фаолияти давомида у нафақат ўзбек журналистикаси фанига, балки мамлакатимиз миллий медиа, публицистикаси ривожига ҳам ўзига хос мактаб яратди. Одилик, ҳалоплик, ростгўйлик, шаффофлик профессорнинг севимли шиори. Унинг амалга оширган ишларини хронологик тарзда тузадиган бўлсак, катта бир китоб бўлиши шубҳасиз. Бундай тиниб-тинчимас ташкилотчи ҳамкасбимиз билан ҳар қанча фахрлансак арзийди.

Бугун Ўзбекистонда ҳарбий журналистика илми тобора ривожлана бормоқда. Кўппаб диссертациялар ҳимоя қилинди. Ҳарбий журналистика илми бўйича ўқув қўлланмалари, дарсликлар ёзилди. Фақат бакалаврият эмас, магистратура йўналиши ҳам очилди. Алоҳида кафедра ташкил этилди. Фавқулодда вазиятлар журналистикаси билан боғлиқ диссертация ҳимоя қилинди.

Уруғ қачон униб чиқиб, ҳосил беради? Муҳит яхши бўлганида. Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университети тупроғида уняпти, баракали ҳосил берапти, шу уруғ. Бунда, албатта, журналистика илмига ҳақиқий етакчилик қилаётган инсон, профессор, университет ректори Шерзодхон Қудратхўжанинг ҳиссаси, у яратган илмий муҳитнинг аҳамияти катта.

ОВОЗИНГНИ ЭМАС, СЎЗИНГНИ ЮКСАЛТИР

Шерзодхон дўстим кўпинча менга “ўртоқ полковник” дейди. Мақтаса

ҳам, танбеҳ берса ҳам одатда бу сўз ишлатилади. Унга жавобан “ҳурматли генерал” дейман. Мулоқот ва суҳбатимиз самимиятига шу сўзлар етарли бўлади. Яримта гапдан масала англашилади. Ҳарбийча каломнинг кучи шундай. Қадимда қўмондонлар буюрса, “бош устига!” дейилган.

2019 йилда дастлабки иш фаолиятимни Ўзбекистон журналистика ва оммавий коммуникациялар университетида давом эттирдим. Университетда илк бор илмий кенгаш йиғилишида иштирок этдим. Илм билан боғлиқ машварат манфаатли-да. Кутилмаганда ректор Шерзодхон Қудратхўжа мен ҳақимда маълумот бера бошлади. “Ҳақиқий полковник. Ҳарбий журналистика соҳаси ривожига жуда катта ишлар қилган. Бугун биз билан бир сафда. Худо ҳоқласа илмда генерал бўлади”.

Бу гапларда самимият бор эди. Рухланиб кетдим. Раҳбаринг, дўстинг, олим одам шундай деб тургандан кейин “бош устига” дейсан. Ўша кундан эътиборан мен ўзимга вазифа белгилаб олганман. Орзуларимнинг энг афзалини илмга қаратдим. Устоз деган мақомга муносиб бўлиш, ўқув адабиётлари ёзиш, ҳарбий журналистика соҳасида баҳоли қудрат тадқиқотлар ўтказиш ҳаракатидаман. Ректор, олим, дўст Шерзодхон Қудратхўжанинг ёнида ҳеч бўлмаса илмнинг бир аскаридек туриш учун бел боғлаганман.

Овозингни эмас, сўзингни юксалтир, – дейди Жалолиддин Румий. Момақалди роқ шовқин кўтаргани билан майсани ундирадиган ёмғир бўлади. Бу гап олимлар учун ҳам айна муддао деб ўйладим. Афсус. Бугун жамиятда ҳамма ҳам сўзини юксалтиришга ўзида унчалик рағбат сезмайди.

Шерзодхон Қудратхўжанинг ректорлиги, олимлиги, профессионал журналистлиги, суянса бўладиган дўст эканлиги борасида балким кўп нарса айта олмагандирман. Билим ва куч сарфлаб, нурга етишга интилиш олимнинг қисмати. Нурга етган илмдан яхши ҳам, ёмон ҳам баҳраманд бўлади. Дўстим Шерзодхоннинг сиймосида, у ректор бўладими, олим бўладими, таниқли журналистми, бир нарсани, нурга етган илмни кўраман.

Эллик ёшингиз муборак бўлсин, Шерзодхон Қудратхўжа!

Алижон САФАРОВ,
ЎзЖОКУ Босма ОАВ ва
ноширлик иши факультети,
Ҳарбий ва спорт журналистикаси
кафедраси мудири, филология
фанлари бўйича фалсафа
доктори (PhD), доцент,
резервдаги полковник.

Таҳририятдан: ФВВ “Муҳофазат” журнали – “Vaziyat” газетаси бирлашган таҳририяти ижодий жамоаси таниқли сиёсатшунос олим, профессор Шерзодхон Қудратхўжани таваллуд айёми муносабати билан муборакбод этади.

AVTOMOBILLAR XAVFSIZLIGI

Har yili avtomashinalarga o'rnatilgan gaz ballonlarining portlashi oqibatida o'nlab baxtsiz hodisalar ro'y berib, ko'plab insonlar hayoti va salomatligi xavf ostida qolmoqda. Ko'pchilik haydovchilar gaz balloni qancha bosim ostida bo'lishi kerakligini bilmaydi yoki bilsa ham amal qilishni xohlamaydi. Transportda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik, gaz ballonlarini o'z vaqtida nazoratdan o'tkazmaslik ko'plab ayanchli oqibatlarga olib kelmoqda.

Gaz ballonlari bir yilda kamida bir marotaba yuqori bosim ostida sinovdan o'tkazilishi kerak. Bu gaz balloni devorlarining mustahkamligini, tashqi va ichki deformatsiyaga uchramaganligini aniqlash va yana bir yil foydalanish uchun ishonch hosil qilish imkonini beradi. Shuningdek, ballon gaz cho'kmalari va boshqa chiqindilardan tozalanib, yuviladi. Amaliyotda esa ko'pchilik haydovchilar gaz ballonini sinovdan o'tkazishdan qochishadi. Buning uchun noqonuniy yo'llardan ham foydalaniladi.

Ma'rufjon HAYITOV,
NKMK AJ "Navoiyuran"
DK YXTTEM guruh boshlig'i, katta serjant.
Siroj ZOIROV,
kichik inspektor, oddiy askar.

DAVR TALABI

Metropolitenda YXTB boshlig'i tomonidan xodimlar va ishchilarga yong'inlar va boshqa tushadigan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha yo'riqnomalar o'tildi.

Shuningdek, xizmat texnikalari bilan tanishtirildi.

K.NURULLAYEV,
Metropolitenda YXTB inspektori, leytenant.

QURILISHDAGI TALABLAR

Xonqa tumani FV bo'limi xodimlari tomonidan "Do'stlik" mahallasi Mebelchilik kichik sanoat zonasida qurilish jarayonlari ko'zdan kechirilib, mebelsozlar bilan muloqot olib borildi.

Suhbat davomida qurilish ishlarini boshlash hamda loyihalarni o'z vaqtida ishga tushirilishini ta'minlash bo'yicha takliflar bildirildi. Shu bilan birga, qurilish davomida amaldagi talablarga qat'iy rioya qilish to'g'risida ogohlantirildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi inspektori,
katta leytenant.

Jamiyat rivojlanar ekan, hech bir davlat, hech bir shaxs tabiiy va texnogen tushadigan favqulodda vaziyatlardan to'liq muhofazalangan emas. Dunyo miqyosida global o'zgarishlar sodir bo'lib turgan bugungi kunda iqlim o'zgarishi, atrof-muhitning ifloslanishi avj olayotgan zamonda inson o'zini va o'zgalarni qutqarishni, ruhiyatini tushirmay ongli ravishda harakat qilishni va bunday vaziyatlarda xatarlarni yengib o'tishni bilishi zarur.

TAVSIYA Favqulodda vaziyatlar kutilmagan vaqtda, kutilmagan joyda sodir bo'ladi. Shu sababli, har bir inson favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakat qilishni bilishi, shikastlangan "o'chog'da" qolgan taqdirda o'ziga va o'zgalarga yordam ko'rsata olishi, rahbar xodimlar esa bunday noxush holatlarda boshqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. Har bir rahbar, har bir favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasining xodimi texnogen, tabiiy va ekologik favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan vaqtda vaziyatga baho berishni, tezlik bilan tegishli qarorlar qabul qilishni, qidiruv-qutqaruv va shoshilinch ishlarni o'tkazishda boshqaruvni amalga oshirish yo'llarini bilishi va bu borada yuqori malakaga ega bo'lmog'i darkor. Favqulodda vaziyatlarda halokatlarning oldini oluvchi zarur chora-tadbirlar qanchalik tez bajarilsa, ularning talofatga olib keluvchi ta'sirlarini bartaraf etish shunchalik oson kechadi.

Baxtiyor Mirzaqobilov,
Samarqand viloyati FVB HFXO'M katta
o'qituvchisi.

UCHRASHUV

Yashnobod tumani FV bo'limi profilaktika inspektorlari tomonidan yirik savdo majmualari hamda aholi gavjum joylarda favqulodda vaziyatlar kelib chiqishining oldini olish maqsadida ishchi xodimlar bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda.

Ana shunday tadbirlardan biri "Korzinka" savdo majmuasida olib borilib, savdo majmuasi mamuriyati bilan hamkorlikda obyektning yong'in xavfsizligi holati ko'zdan kechirildi. O'rganish davomida aniqlangan kamchiliklar borasida maskan rahbariga kamchiliklarni bartaraf etishi yuzasidan ogohlantirish va tavsiyalar berilib, bartaraf ettirish choralari ko'rilmoqda.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FV bo'limi
inspektori,
katta leytenant.

MAVSUM OLDIDAN

Yashnobod tumani Favqulodda vaziyatlar bo'limi hamda tuman SEO va JSSB xodimlari bilan suv havzalarining sanitarik holati hamda turli ko'ngilsiz hodisalar ro'y berganda birlamchi qutqaruv anjomlari, qutqaruv nimchalari va shunga o'xshash zaruriy vositalar bilan ta'minlanganligi va mas'ul xodimlarning bu boradagi bilim va malakalari o'rganildi.

A.HAYITBOYEV,
Yashnobod tumani FVB inspektori,
katta leytenant.

"Quvnoqlar va zukkolar" – 2024" ko'rik-tanlovining navbatdagi hududiy bosqichiga Qoraqalpog'iston Respublikasi FVB mezbonlik qildi.

G'ALABA MUBORAK!

Mazkur tanlovda Samarqand, Farg'ona, Qashqadaryo viloyatlari hamda Toshkent shahar FVB terma jamoalari qatnashdi.

Unda Samarqand viloyati FVBning "Afrosiyob" jamoasi ko'rik-tanlovning Surxondaryoda o'tkaziladigan respublika bosqichiga yo'llanma oldi.

Toshkent shahar FVB terma jamoasi esa 2-o'rinni egallagan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatidan kelgan ishtirokchilarga 3-o'rin nasib etdi.

Said TOSHQULOV,
Samarqand viloyati FVB
axborot xizmati yetakchi mutaxassisi.



CHO'MILISH

Cho'milish – bolalar va kattalar uchun chiniqishning asosiy omili sanaladi. Chunki suv eng kuchli va samarali chiniqtiruvchi vositadir. Suv organizmida qon aylanishini yaxshilaydi, oksidlanish jarayonini faollashtiradi, asab va muskul tizimlarining tonusini oshiradi. U tana, oyoq muskullari, yelka kamarining bir me'yorda rivojlanishiga hamda nafas olish tizimiga yaxshi ta'sir etadi. Shuning uchun so'zishni yoshlikdan, bolalikdan o'rganish zarur va shundagina suzishda uchraydigan favqulodda vaziyatlar, falokatlar va xavf-xatarlarning oldi olinadi.

Dilshod ANVAROV,
Oliy Majlis Senatiga qarashli binolarda
YXTTEB kichik inspektori, katta serjant.
Murod YULDASHEV,
"Turkiston" saroyi YXTTEB kichik inspektori, katta serjant.

YOPIQ SUV HOVUZLARI



A-373 "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining "Qamchiq" dovoni hududining 10 ta joyida 50 m³ temir-beton konstruksiyali yopiq suv hovuzlarini qurish rejalashtirilgan. Hozirgi kunda "Qamchiq" dovoni bo'ylab "Qamchiqavtoyoy'I IYFUK" DM ishchi-xodimlari tomonidan 8 ta hududda xandaqlar tayyorlanib, pastgi qismi sement-beton qoplamasi bilan tekislanib, bitum bilan ishlov berilmoqda.

Qurilish ishlari "Qamchiq" MQYQB favqulodda vaziyatlar profilaktikasi bo'limi hamda "Qamchiqavtoyoy'I IYFUK" DM mutaxassislari bilan hamkorlikda nazoratga olinib, yong'in va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilinishi bo'yicha profilaktik tadbirlar amalga oshirilmoqda.

F.DADOMATOV,
"Qamchiq" MQYQB FVPB
kichik inspektori,
oddiy askar.

FVV tizimidagi yosh harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning intellektual salohiyatini yanada oshirish maqsadida Samarqand shahrida "Quvnoqlar va zukkolar – 2024" ko'rik-tanlovining navbatdagi hududiy bosqichi bo'lib o'tdi.

QUVNOQLAR VA ZUKKOLAR

Yosh harbiy xizmatchi va xizmatchilar ishtirok etgan ushbu tanlovda 1-o'rinni Sirdaryo viloyatining "Bojalar" jamoasi, 2-o'rinni "Qamchiq" maxsus yong'in qidiruv-qutqaruv boshqarmasining "Qamchiq lochinlari" jamoasi, 3-o'rinni Xorazm viloyatining "Quvnoq qutqaruvchilar" jamoasi egalladi.

Yakunda g'olib va sovrindorlar diplom, tashakkurnoma hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandilar.

Azizbek AHMEDOV,
Samarqand viloyati FVB
bo'lim boshlig'i, kapitan.

Маърифат соати

ФАРЗАНД – ОИЛА ҚУВОНЧИ, ЮРТ КЕЛАЖАГИ

Дунё бўйлаб болаларнинг соғлом катта бўлиши ва сифатли таълим олишига камбағаллик, очлик, турли иқтисодий ва сиёсий инқирозлар таъсир ўтказди. Тўйиб овқатланмайдиган, сифатли таълимдан бебахра, мажбурий меҳнатга жалб қилинаётган миллионлаб болалар бор. Мамлакатимизда эса бола ҳуқуқлари ва манфаатларини таъминлаш, уларга ёрқин келажак барпо этиш учун барча шарт-шароитларни яратиш борасида тинимсиз ишланмоқда ва ютуқларимиз ҳам салмоқли. Ўзбекистонда болалар ҳуқуқлари, авваламбор, Конституция билан белгиланган. Шунингдек, 2007 йилда қабул қилинган “Бола ҳуқуқлари кафолатлари тўғрисида”ги қонун, 2019 йил 22 апрелдаги “Бола ҳуқуқлари кафолатларини янада кучайтиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарори билан ҳимояланган. Шунингдек, Ўзбекистонда 2019 йилдан бошлаб “болалар омбудсмани” институти жорий этилган. Болаларни ҳар томонлама ҳам жисмоний, ҳам интеллектуал етук инсонлар бўлиб ўсишини таъминлаш мақсади республиканинг устувор вазифалари қаторига киритилган.



Дарвоқе, XX асрда бўлиб ўтган икки жаҳон уруши ҳаммадан ҳам болалар учун аянчли бўлди. Биринчи жаҳон урушида Италияда болалар ўлими 45 фоизга етиб, 5 ёшгача бўлган миллиондан ортиқ бола ҳалок бўлган. Бошқа иштирокчи давлатларда ҳам деярли шундай ҳолат кузатилган. Иккинчи жаҳон уруши болалар учун бундан ҳам қирғинбарот келган. Миллионлаб болалар ўлим, очлик, етимлик, психологик жароҳатларга рўбарў бўлган. Биринчи жаҳон урушидан кейин болаларни асраш, уларни етимликдан ҳимоя қилиш, фаровон турмуш кечиршини таъминлаш учун кичик-кичик ҳаракатлар бошланган. Турли мамлакатларда болалар кунлари белгиланган. Биринчи Болалар куни 1857 йил АҚШнинг Массачусетс штатида бошлаб берилган бўлиб, дастлаб бу кун “Атиргул” куни деб аталган. Кейинчалик эса “Болалар куни” деб номланган. 1920 йилда эса Туркия томонидан Болалар куни расмий равишда миллий байрам сифатида эълон қилинган ва 23 апрелда нишонланиши белгиланган. Қолаверса, халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни биринчи марта Женевада 1925 йил 1 июнда болалар фаровонлиги бўйича Бутунжаҳон конференцияси пайтида эълон қилинган. Хитойнинг Сан-Франциско шаҳридаги Бош консули Болаларни ҳимоя қилиш кунига асос солган ташаббускорлардан бири сифатида эътироф этилади. 1925 йилда у барча етим болалар учун “Дуан-ву-цзе” хайрия фестивалини уюштирган ҳамда болаларнинг муаммоларига жамоатчилик эътиборини қаратган. Иккинчи жаҳон урушидан кейинги даврда сайёрамизда яшовчи барча масъум бола-

жонларнинг соғлиқ ва хотиржамлигини сақлаш долзарб муаммога айланган, ота-онасиз етим қолган болажонлар охи кўпчиликни бефарқ қолдирмаётган эди. 1949 йилда Парижда Халқаро хотин-қизлар демократик федерацияси томонидан “1 июнь – Халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни”, деб эълон қилинган. Бу байрам бутун дунёда 1950 йилдан буён нишонланади. 1959 йилда Бирлашган Миллатлар Ташкилоти томонидан Бола ҳуқуқлари декларацияси қабул қилинди. Декларация фақат тавсиявий характерига эга бўлиб, мажбурий кучга эга эмас эди. Бола ҳуқуқлари халқаро ҳуқуқ даражасида кўриб чиқилган асосий халқаро ҳуқуқий ҳужжат 1989 йил 20 ноябрда БМТ томонидан қабул қилинган “Бола ҳуқуқлари тўғрисида”ги конвенциядир. Унда бутун дунё мамлакатлари учун болалар ҳуқуқларини ҳимоя қилишни таъминлаш тўғрисидаги вазифалар ўз аксини топган. Дуненинг кўплаб мамлакатлари ва шаҳарларида ушбу кунда болалар ҳуқуқлари ва уларни ҳимоя қилиш ҳақида мунозара ва лекциялар ўқилади, тушунтириш ишлари олиб борилади. Байрамга бағишланган маданий-оммавий тадбирлар, спорт мусобақалари ўтказилиб, концертлар ташкил этилади. Шу кун оғир бемор, даволанишга муҳтож, ногиронлиги бўлган болалар учун хайрия акциялари ташкил қилинади. Болаларни ҳимоя қилиш кунини нишонлаш орқали кенг жамоатчилик диққатини муаммоли болаларга, уларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш, ҳимояланган дунёда яшаш имкониятига, бахтли болаликка эга бўлишлари ва ўз мамлакатининг тўла-тўқис ва хотиржам фуқароси бўлиб ўсишларига эришишга қаратилади.

Қайд этиш жоизки, халқаро болаларни ҳимоя қилиш куни, энг аввало, катталарга болаларнинг яшаш, фикр ва эътиқод эркинлиги, таълим олиш, ҳордиқ чиқариш, ҳуқуқларини ҳурмат қилиш, жисмоний ва руҳий зўравонликдан ҳимоя қилиш зарурлигини эслатиб туради. Мамлакатимизда ҳам бу кунни катта тантана билан байрам қилиш анъанага айланган. Болалар саломатлигини мустаҳкамлаш, уларнинг энг гўзал дамлари шодликка, хурсандчиликка тўла ўтиши учун барча саъй-ҳаракатлар амалга оширилади. Бола ҳуқуқларини таъминлаш, кафолатлаш инсонпарвар ва адолатли жамиятни шакллантириш учун зарур шарт-шароит сифатида намоён бўлади.

Дарҳақиқат, юртимизда соғлом оила муҳитини яратиш, она ва бола саломатлигини муҳофаза қилиш, соғлом бола туғилиши, жисмоний ва маънавий баркамол авлодни вояга етказиш борасида жуда кўплаб хайрли ишлар бажарилмоқда. Барча эзгу ниятларимиз замирида фарзандларимизни ҳам жисмоний, ҳам маънавий жиҳатдан соғлом улғайтириш, уларнинг бахту саодати, фаровон келажакини кўриш орзуси ётибди. Ана шу ғамхўрлик ва эътибор натижасида жигарбандларимиз ҳаммамнинг ҳавасини келтирадиган, истеъдодли бўлиб вояга етишади. Ҳозирда спорт, санъат, мусиқа, фан-техника соҳасида юртимиз довуғини жаҳонга еяётган ёшлар сони кундан-кунга зиёда бўлиб бормоқда. Барча ёшларимиз ҳамма орзулари ушаладиган, интилишлари қўллаб-қувватланадиган мамлакатда яшаётганидан бахтиёр бўлишлари керак.

Шуни ҳам айтиш лозимки, фарзандни маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаб, вояга етказишда оила асосий бўгин ҳисобланади. Оиладаги тарбия бутун жамиятнинг, миллатнинг бугунги куни ва келажакига таъсири бўлади. Фарзанд ота-онанинг қувончи, умр меваси, оила фахри, келажак, бахтидир. Оиланинг мустаҳкамлиги, оилавий муносабатлар маданиятнинг даражасига боғлиқдир. Фарзандларимизнинг жисмонан соғлом, одобли, билимли ва ҳар томонлама салоҳиятли бўлиб етишиши, ўсиши кўп жиҳатдан уларнинг ота-оналарига боғлиқдир. Улар боланинг табиати, хулқ-атвори шу оиладаги муҳитга қараб шаклланишини эсдан чиқармаслиги зарур. Ҳар бир ота-она фарзанд тарбияси билан жиддий шуғулланиши керак, аммо фарзанд тарбияси билан шуғулланадиган ота-оналарнинг ўзлари фарзанд тарбияси ҳақида маълум бир билимга эга бўлиши лозим. Уларнинг ҳар иккиси ўз вазифаларини, ота-оналик бурчларини мукамал адо этишса, яъни фарзандни жисмонан, ақлан ва ахлоқан камолга етиштириб, ақлли, кучли, билимли ва яхши ахлоқ билан тарбиялаши керак.

Ўз ҳаёти, маънавияти ва келажакининг бунёдкори бўлган бола шахсининг камол топишида оила муҳити, соғлом турмуш тарзи биринчи даражали роль уйнайди. Ота-она оиланинг муқаддаслигини дилдан ҳис этиши, унинг мустаҳкам, барқарор ва умрбоқий бўлишида масъулиятини чуқур англаши, фарзанди ҳаётида юксак маънавий-ахлоқий миллий ва умуминсоний қадриятлар ўрнини мустаҳкамлайди, оиланинг ижтимоий ҳаётидаги мавқеини оширади. Сабаби, оила жамиятнинг ижтимоий, иқтисодий ва демографик ривожланишига пойдевор бўлувчи асосий ижтимоий институт саналиб, ундаги муҳит қанчалик соғлом бўлса, Ватан шунчалик гуллаб-яшнайдиган, тараққий этади. Зеро, кучли фуқаролик жамияти ва демократик ҳуқуқий давлатни яратишнинг муҳим шартларидан бири ҳар жиҳатдан соғлом, мустақил фикрловчи, маънавияти юксак авлодни тарбиялашдир. Ота-она доимо ўз фарзанди тимсолида эзгу орзу-ниятлар юзага чиқишини тасаввур қилади. Одоби, билимдон, ақлли, соғлом, меҳрибон ҳамда меҳнатсевар фарзанд нафақат ота-онасининг, балки бутун жамият ва халқнинг бойлигидир. Ёшларни ватанимизга, миллий ғоя ва анъаналаримизга садоқатли қилиб тарбиялаш, ўз Ватани ва халқи, шунингдек, табиат ва жамият олдидидаги масъулият ҳиссини ошириб тарбияласак, улар оила қувончи ва Ватан равнақи учун хизмат қиладиган комил инсон бўлиб етишади. Мана шундай ёшлар мустақил Ўзбекистонимизнинг келажак, ишончи ва давомчиси бўла олади. Юртимизда болажонларнинг шўх-шодон кулгилари ҳамиша янграб турсин. Катталарнинг эътибори, ғамхўрлиги, меҳри ва қайноқ тафти болаларимизнинг ҳамроҳига айлансин.

Саҳифани Анвар ҚОБИЛОВ
тайёрлади.



ПОЛИЭТИЛЕН

Маълумки, ишлаб чиқаришда фойдаланидиган полиэтилен аниқ бир зичликка эга бўлиши керак. Кўпга ўтказилган тажрибалар шуни кўрсатдики, $0,91-0,92 \text{ г/см}^3$ зичликка эга бўлган қаттиқ полиэтилен этилени $1500-2500$ атмосфера босимда сиқилганда, радикал полимерланиш механизми бўйича ҳосил бўлар экан.

Юқори босимда олинган полиэтилен ҳозир ишлаб чиқариладиган жами полиэтиленларнинг тахминан 50 фоизини ташкил этади. Бу полиэтилен асосан парда ишлаб чиқариш учун ишлатилади.

Ушбу полиэтилендан парда олишдан ташқари, қалин деворли эластик буюмлар олиш, кабелларни изоляция қилишда кенг фойдаланилади. Яна шуни айтиб ўтиш керакки, бу технологик усул билан этиленни қутбли мономерлар билан сополимерлаш орқали олинган полиэтилен юқори эластик хоссага эгадир.

Юқори босимли полиэтилен биринчи мартаба 1939 йилда Англияда ишлаб чиқарилган. Паст босимда олинган полиэтилен, этилени $60-80^\circ\text{C}$, ҳароратда $2-5 \text{ кг/см}^2$ босимда металорганик комплекс катализаторлар иштирокида суюқлик муҳитида полимерлаш усули билан ишлаб чиқарилади. Бу усул 1954 йилда Германияда

Циглер томонидан кашф қилинган. Катализаторлар Циглер-Натта катализаторлари деб ҳам айтилади. Юқори босимда олинган полиэтиленнинг таркиби тармоқланганлиги сабабли, кристаллик даражаси паст бўлса, паст босимда олинган полиэтиленнинг макромолекулалари чизиксимон тузилганлиги учун улар ўз мустақамлиги, зичлиги, суюқланиш ҳарорати ва кристаллик даражаси (90 фоиз) юқори босимда олинган полиэтилендан юқори юради. Ўрта босимли полиэтилен босими $40-50 \text{ кг/см}^2$, $80-16^\circ\text{C}$ ҳароратда турли металл оксидлари иштирокида этиленни каталитик полимерлаш йўли билан олинади. Бу полиэтилен ўрта зичликка эга бўлади. Бу усул 1960 йил атрофида амалга оширилган. Кейинчалик бу усулнинг бошқа хили ҳам пайдо бўлади. 1980 йилдан бошлаб, кенг миқёсда "склертек" технологияси деб номланган янги технология амалга оширилди.

Юқори босим остида ишлаб чиқарилган полиэтиленнинг физик-механик хоссалари, асосан, молекуляр масса тақсимоти, қисқа ва узун занжирли тармоқларнинг мавжудлиги кристаллиги, молекуляр ва надмолекуляр таркиби орқали аниқланади. Полиэтиленнинг оқувчанлик чегараси, эгилиш модули (W), қаттиқлиги қисқа занжирли тармоқнинг камайиши билан ошиб боради. Бу хоссалар полиэтиленнинг кристаллик даражаси ва зичлигига тўғри пропорционалдир. Нисбий чўзилиш, чўзилишдаги мустақамлиги, мўртлик ҳарорати, зарбга чидамлиги, кучланишдаги турғунлиги асосан молекуляр массасига боғлиқдир.

Уй шароитида полиэтиленни сақлашда нур таъсир қилмайдиган ҳолатда полиэтилен пардасига кислороднинг таъсири жуда ҳам секин. Эксплуатация қилишда, ҳарорат ошган сари кислород таъсири ортиб боради ва бу жараёни полиэтилен пардаларининг физик-механик хоссаларининг пасайишида кўриш мумкин. Ташқи таъсир натижасида полиэтиленда макромолекулалар деструкцияси унинг молекула массасининг камайиши ҳамда макромолекулаларнинг чокланиши ва унинг физик-механик хоссаларининг пасайишига олиб келиши мумкин.

**Интернет манбалари асосида
Рушана РОЗАБОЕВА тайёрлади.**

ДУНЁ АЖОЙИБОТЛАРИ

Сталагмит – тоғ ғори шаклланиши бўлиб, у одатда тўхтатилган ва оқаётган минерал сув томчилари натижасида ҳосил бўлган ҳаддан ташқари осилган геологик намунадир. Сталагмит ҳосил бўлиш жараёни узоқ муддатли гидрולי таъсирга эга бўлган ғорлардан бошланади, чунки оҳақтош жинсига сингиб кетган сув минералларни эритиб, ташийди. Сув буғланганда,

томчилар тушганда ёки қуриганда пайдо бўлади, ортиқча минералларга бой чўкиндилар чўқади ва ўзига хос шакллари ҳосил қилади, улар сталагмитлардир. Улар шаклланиш муҳити ва жараёнининг давомийлигига қараб, кенг ва қисқа, тор ва баланд бўлиши мумкин. Сталагмитларни кўпинча ғорлар ва ер ости тузилмаларида кўриш мумкин. Ноёб шакл ва тузилишга эга

бўлиб, кўпинча туристик диққатга сазовор жойларга айланади ва ўзининг гўзаллиги ва сирлилиги билан сайёҳларни жалб қилади. Шуниси қизиқки, сталагмитларнинг ўсиши сувнинг мавжудлиги ва унинг буғланиш жараёни билан чекланган. Тушган ёки оқаётган сув томчилари кўпинча калций ва карбонатлар каби минералларни ўз ичига олади, улар сталагмит юзасида чўқади ва қатламлар ҳосил қилади. Ўнлаб ёки юзлаб йиллар давом этиши мумкин бўлган бу жараён ноёб ва чиройли тузилмаларни яратади. Сталагмитлар геологик объектлар сифатида катта аҳамиятга эга ва муҳим тадқиқот объектлари ҳисобланади. Улар нафақат ўтмишдаги иқлим ва атроф-муҳит омилларини акс эттиради, балки ер ости гидрологияси ва геодинамик жараёнларнинг кўрсаткичлари сифатида ҳам хизмат қилиши мумкин. Уларнинг таркиби ва тузилиши сайёрамиз геологик тарихининг турли жараёнларини ўрганиш ва таҳлил қилиш учун ҳам ишлатилиши мумкин. Хулоса қилиб айтганда, сталагмитлар табиат жараёнлари натижасида яратилган ноёб ва ажойиб геологик тузилмалардир. Уларнинг гўзаллиги ва илм-фан соҳасидаги аҳамиятини инкор этиб бўлмайди. Уларнинг гўзаллиги ва сирлилигига гувоҳ бўлиб, табиатнинг улғуворлиги ва ҳайратига сингиб кетамиз.

Фахриддин РАҲИМОВ.



Vaziyat

газетаси

Муассис:
Ўзбекистон
Республикаси
Фавқуллода
вазирлар
вазирлиги

Бош муҳаррир
Азамат СУЙОНОВ

Газета таҳририят
компьютерхонасида
саҳифаланди.

Газета ҳар ҳафтанинг
пайшанба куни чиқади.
Топшириш вақти – 15.00
Топширилди – 15.00

Навбатчи:
А.ҚОБИЛОВ

Таҳририятга юборилган
материаллар қайтарилмайди
ва изоҳ берилмайди.
Муаллифлар фикри таҳририят
нуқтаи назаридан фарқланиши
мумкин.

Газетадан олинган материаллар
манбаси кўрсатилиши шарт.

Газета Ўзбекистон Матбуот ва
ахборот агентлигида 2007 йил
3 январда 0096-сон рақам
билан рўйхатга олинган
ISSN 2091-5292

Таҳририят манзили:
100084, Тошкент шаҳри,
Юнусобод тумани,
Ш.Рашидов кўчаси, 17-А уй.
Тел.: (71) 212-69-56
Телеграмм: (90) 016-87-67

Индекс:
якка обуначилар ва
ташқилотлар учун – 382

Газета "BUSINESS PRINT DESIGN"
босмахонасида босилди.
Манзил: Тошкент шаҳри,
Сўғалли ота кўчаси, 5-уй.
Буюртма №
Бичими: А3, ҳажми: 2,0 б.т.
Адади – 6000 нуска